

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING QONUNI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING SAYLOV KODEKSIGA O'ZGARTISH VA QO'SHIMCHALAR KIRITISH TO'G'RSIDA

Qonunchilik palatasi tomonidan 2021-yil 4-mayda
qabul qilingan
Senat tomonidan 2021-yil 29-mayda
ma'qullangan

1-modda. O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 25-iyunda qabul qilingan O'RQ-544-sonli Qonuni bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasining Saylov kodeksiga (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2019-yil, № 6, 327-modda; 2021-yil, № 2, 139-modda) quyidagi o'zgartish va qo'shimchalar kiritilsin:

1) 14-moddaning **yigirma sakkizinchi xatboshisi** quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“saylovchilarning va saylov jarayoni boshqa ishtirokchilarining murojaatlarini ko'rib chiqadi hamda ular yuzasidan qarorlar qabul qiladi, bundan saylov komissiyalarining harakatlari va qarorlari ustidan berilgan shikoyatlar mustasno”;

2) 20-modda birinchi qismining **o'n beshinchi xatboshisi** quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“saylovchilarning va saylov jarayoni boshqa ishtirokchilarining murojaatlarini ko'rib chiqadi hamda ular yuzasidan qarorlar qabul qiladi, bundan saylov komissiyalarining harakatlari va qarorlari ustidan berilgan shikoyatlar mustasno”;

3) **21-moddaning:**

birinchi qismi quyidagi mazmundagi birinchi va ikkinchi qismlar bilan almashtirilsin:

“O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovini o'tkazish bo'yicha okrug saylov komissiyasi Markaziy saylov komissiyasi tomonidan saylovga kamida yetmish kun qolganida komissiya raisi, rais o'rinbosari, kotibidan va komissiyaning sakkiz — o'n sakkiz nafar boshqa a'zolaridan iborat tarkibda tuziladi.

Qonunchilik palatasi deputatlari saylovini o'tkazish bo'yicha okrug saylov komissiyasi Markaziy saylov komissiyasi tomonidan, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar Kengashlariga saylov o'tkazish bo'yicha okrug saylov komissiyasi esa tegishli viloyat, Toshkent shahar saylov komissiyasi tomonidan saylovga kamida yetmish kun qolganida komissiya raisi, rais o'rinbosari, kotibidan va komissiyaning olti — sakkiz nafar boshqa a'zolaridan iborat tarkibda tuziladi”;

ikkinchi — beshinchi qismlari tegishincha uchinchi — oltinchi qismlar deb hisoblansin;

4) 22-moddaning **o'n uchinchi xatboshisi** quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“saylovchilarning va saylov jarayoni boshqa ishtirokchilarining murojaatlarini ko'rib chiqadi hamda ular yuzasidan qarorlar qabul qiladi, bundan saylov komissiyalarining harakatlari va qarorlari ustidan berilgan shikoyatlar mustasno”;

5) 31-moddaning **uchinchi qismidagi** “egallab turgan lavozimi (mashg'ulotining turi), ish joyi” degan so'zlar chiqarib tashlansin;

6) 38-modda **uchinchi qismining** ikkinchi jumlasini “pasportining” degan so'zdan keyin “yoki identifikatsiya ID-kartasining” degan so'zlar bilan to'ldirilsin;

7) 39-modda **to'rtinchi qismining** uchinchi jumlasini quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“Mazkur holda Markaziy saylov komissiyasi siyosiy partiyaga O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga nomzodni ro'yxatga olishni yoki Qonunchilik palatasi deputatlari saylovida ishtirok etish huquqini rad etadi”;

8) **48-modda:**

quyidagi mazmundagi **uchinchi qism** bilan to'ldirilsin: